

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“MILLIY IQTISODIYOTIMIZDA INVESTITSİYALAR VA MOLIYAVIY
RIVOJLANISHNI OLIY MUHANDISLIK MAKTABLARI BILAN
INTEGRATSIYALASHTIRISH SAMARADORLIGI”

TEZISLAR TO‘PLAMI

2024-yil 1-avgust–27-sentabr



MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 217 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 30-iyulda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalendarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori
Nosir Mahmudov, i.f.n. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Kopak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Nasir Mahmudov, I.f.n. Professor of Tashkent State University of Economics

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCEGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

MUNDARIJA

Zamonaviy agrotexnologiyalar hosildorlik garovi	15
K.A.Sharipov, V.A.Karimov	
Oliy ta'lim tizimida iqtidorli talabalar bilan ishlashni tashkil etish. toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va xorijiy davlatlar tajribasi.....	19
S. M. Mirzaliyev	
Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining daromadlilikini oshirish masalalari.....	24
Adilov Mirkomil Miralimovich	
Yoshlar turizmi bilan bog'liq tushunchalarni o'rganishning nazariy jihatlarini.....	27
Allayor Norboev Ismoilovich	
The importance of risk management to ensuring the stability of commercial banks	30
Abdusalomov Jahangir Oktam ugli	
Davlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari xarajatlari hisobining asoslari	33
Abduraxmanov Otabek Patidinovich	
Inson kapitalini boshqarishda inteluktual salohiyatni iqtisodiy bilimlar bilan mustahkamlash dolzarbligi	36
Kurbanbayeva Sevara Marat qizi	
Reducing corruption through tax mechanisms	39
Musayeva K.Y	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida o'zbekistonda kichik biznesning rivojlanish jarayonlari tahlili	42
Akbarov Abdulhamid Akmal o'g'li	
Davlat budjeti xarajatlarining samaradorlik indikatorlaridan samarali foydalanish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash masalalari	45
S.M.Xolxo'jayev	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyati tahlili	47
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi	
Issues of greening the economy in ensuring sustainable economic growth.....	51
Nurmetova Muyassar Jumanazarovna	
Reducing corruption through tax mechanisms	54
Musayeva K.Y	
Пути повышения конкурентоспособности предприятия	56
Азларова Муштарийбегим Аббор кизи	
Makroiqtisodiy barqarorlikni ko'rsatkichlarning ijtimoiy omillari va ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish yo'nalishlari	59
S.M. Xolxo'jayev	
Ways to effective management of the public debt.....	62
Olimjon Fattoev	
Aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati va stavkalari.....	66
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
Передовые методы сбора данных для точных маркетинговых исследований	70
Бекназова Комилахон Миркамол кизи	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklar faoliyatida raqamlashtirish loyihalarini qo'llab-quvvatlash	73
Maxsadaliyeva Maftuna Toxir qizi	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tishning nazariy asoslari	76
Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li	

Qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan doimiy va mavsumiy ishchilar soni orasidagi bog'liqlikni statistik tahlil qilish	78
Rustamova Mexrigiyo Muxtor qizi	
O'zbekiston oziq-ovqat bozorining rivojlanishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy prognozlash samaradorligini oshirish yo'llari	83
Abduraxmanova Zuxra Toxir qizi	
Zamonaviy iqtisodiy davrda "yashil" moliya va uning xalqaro moliya tizimidagi o'rni	86
Shodmonkulova Shahlo Olimjon qizi	
The Impact of Financial Technologies (FinTech) on Economic Growth.....	89
Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli	
Post pandemiya davrida jahon turizm bozorida o'zgarishlarning tahlili.....	92
Raxmonov Shuxrat Shavkatovich	
Integration of activities with higher engineering schools to provide employment.....	96
Batirov Farkhad Bakitovich	
Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integrasiyasini tashkillashtirish mexanizmlari.....	99
Adizov S.	
Organik mahsulotlar savdosini oshirishda organik mahsulotlar tarqatish kanallarining ahamiyati	102
Xidirov Shohrux Bobur o'g'li	
Понятие макроэкономической стабильности и её элементы.....	105
Салахиддинова Муштарий Абдумуминовна	
Sportchilarning sog'ligi	108
Mirzalieva Surmaniso Alisher qizi	
Mamlakatimiz iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarining o'rni va uning kelgusi istiqbollari	111
Samariddin Jumaev	
Kichik korxonalarini rivojlantirishdagi muammolari va ularning yechimlari.....	112
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li, Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Значимость внедрения стандартов для улучшения качества обслуживания в туристической индустрии.....	115
Адылова Диёра Улугбековна	
Kimyo sanoati korxonalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmini takomillashtirish.....	118
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyotini rivojlantirish mexanizmlari.....	122
Salomov Temurbek Boburmirzo o'g'li	
Iqtisodiyot va ekologiya muvozanati: barqaror taraqqiyotga yondashuv.....	128
Turdiyeva Iroda Ismoil qizi	
Biznesni moliyalashtirishni manbalarini ko'paytirishni imkoniyatlari.....	131
Adilov Sherzot Shamilevich	
Iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirishni rivojlantirish.....	134
Qo'chqorov Tohir Safarovich, To'ychiyev Akmaljon Abdulatif o'g'li	
Ta'minot zanjirini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni afzalliklari.....	137
Yuldashev Abdusakim Abdukarimovich	
Environmental protection concept: a link between economic well-being and Environmental Degradation.....	141
Egamberdiev Komron	
O'zbekistonda makroiqtisodiy uyg'unlikka erishishning asoslari.....	144
Abdulla Abduqodirov	
Iqtisodiyotni rivojlantirishda tadbirkorlik subyektlarining ta'sirchanligini oshirish yo'llari (O'zbekiston misolida)	147
Rahmatullayeva Ahdiya Ja'farovna, Ollokulova Feruza Nansurovna	

Hududga xorijiy investorlarni jalb etish maqsadida investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish yo'llari	150
Po'latova Sug'diyona Iskandar qizi, Olloqulova Feruza Nansurovna	
Xalqaro banklarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda kredit samaradorligini oshirish yo'llari	153
Abdivaliyev Daler Yusupovich, Ollokulova Feruza Mansurovna	
Mintaqalarda sanoat aglomeratsiyalarni shakllanishi bosqichlari nazariyasi	156
Malikov Zuhriddin Vohidovich	
Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari.....	159
Abdukayumov Xumoyunmirzo Giyosbek o'g'li	
Aholining iqtisodiy savodxonligini oshirish muammolari va istiqbollari	162
Xasanov Jamshid Abdullayevich	
Strategic pricing on the example of the Marriot hotel	165
Botirova Zumrad Ilhom qizi	
O'zbekiston davlat korxonalarini (DK)da moliyaviy samaradorlikni baholash usulini takomillashtirish	168
Qarshiyev Nodirbek Olim o'g'li	
Digital transformation and its effect on inclusive economic growth in Uzbekistan	170
Jazira Buranova	
Сколько стоит «Озеленение» производства для компаний текстильной отрасли?	173
Носирова Чарос	
Investment challenges and solutions for Uzbekistan's metallurgical enterprises	177
Tatiana Budey	
Mulkiy soliqlar ma'muriyatchiligining xalqaro tajribasi	180
Aliyarov Olim Abdug'aparovich	
Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning xalqaro tajribasi.....	184
To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich	
Tredingda texnik tahlil va savdo jarayonlarini boshqarish	188
To'qmirzayev Kamol Mo'min o'g'li	
Qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etish va ularning samaradorligi	190
Shamshetova Gulraushan	
Korxonalar moliyaviy resurslarini boshqarish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari	193
Jiyanova Nargiza Esanboyevna	
Insofli soliq to'lovchilarni ko'paytirish-soliq ko'rsatkichlarining muhim omili sifatida	196
Abdurasulov Alisher Abdurasulovich	
Анализ инвестиционной привлекательности акционерных обществ на фондовом рынке	200
Юлдуз Усманова	
Analysis of international experiences in the development of small business and private entrepreneurship.....	204
Abdovohidov Behzod XXX	
Tijorat banklarida raqamli strategiyalarni shakllantirish va ularni amalga oshirishning xalqaro tajribalari	207
Erdonayev Aliqul Xalimovich	
Intellektual mulk huquqlari va ularning global savdoga ta'siri	210
Raxmonova Dildora Ergash qizi	

Mehmonxona ovqatlanirish xizmatlarida innovatsion menyu siyosatini shakllantirish: sog'lom ovqatlanish va mijoz ehtiyojlari integratsiyasi.....	213
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	

MEHMONXONA OVQATLANTIRISH XIZMATLARIDA INNOVATSION MENYU SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH: SOG'LOM OVQATLANISH VA MIJOZ EHTIYOJLARI INTEGRATSIYASI



Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich

Mustaqil izlanuvchi, (PhD)

<https://orcid.org/0009-0008-0651-4754>

h.yaxshiyev81@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada mehmonxona ovqatlantirish xizmatlarida sog'lom ovqatlanish tamoyillariga asoslangan innovatsion menyu siyosatini shakllantirish zarurati, uning dolzarbligi va amaliy jihatlari yoritilgan. Mijoz ehtiyojlarining diversifikatsiyalashuvi, sog'lom turmush tarziga qiziqishning ortishi va ekologik barqarorlik talablari ushbu siyosatni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Maqolada O'zbekiston mehmonxonalarining hozirgi holati tahlil qilinib, xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish yo'llari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: sog'lom ovqatlanish, menyu siyosati, mehmonxona xizmati, mijoz ehtiyoji, gastronomik innovatsiya.

Abstract: This article explores the necessity of developing an innovative menu policy in hotel catering services based on healthy eating principles. The growing interest in a healthy lifestyle, the demand for ecological sustainability, and the diversification of customer preferences require a new approach to menu development. The paper analyzes the current state of hotel catering in Uzbekistan and suggests improvement strategies based on international best practices.

Key words: healthy eating, menu policy, hotel service, customer needs, gastronomic innovation.

Аннотация: В данной статье рассматривается необходимость формирования инновационной политики меню в гостиничных услугах питания на основе принципов здорового питания. Рост интереса к здоровому образу жизни, экологическая устойчивость и диверсификация потребностей клиентов требуют переосмысления подходов к составлению меню. Анализируется текущее состояние гостиничного питания в Узбекистане и предлагаются пути его совершенствования на основе международного опыта.


Ключевые слова: здоровое питание, политика меню, гостиничный сервис, потребности клиента, гастрономические инновации.

So'nggi yillarda global turizm va mehmonxona sanoatida raqobatning keskin kuchayishi xizmat ko'rsatish sifati va mijoz ehtiyojlarini chuqur o'rganishga asoslangan strategik yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, ovqatlantirish xizmatlari mehmonxonalar uchun nafaqat qo'shimcha daromad manbai, balki mijozlarning umumiy taassurotini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu borada innovatsion menyu siyosatini shakllantirish, ya'ni sog'lom ovqatlanish tamoyillarini mehmonxona restoranlarining kundalik faoliyatiga integratsiya qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy iste'molchi endilikda shunchaki mazali taom emas, balki sog'lig'i uchun foydali, ekologik toza, individual ehtiyoj va dietik afzalliklariga mos keluvchi taomlarni afzal ko'rmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, mehmonxona ovqatlantirish xizmatlarida sog'lom ovqatlanish konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan menyu siyosati tashkilotning raqobatbardoshligini oshirish, brend qadriyatlarini mustahkamlash, mijoz sadoqatini ta'minlash va xizmatdan qoniqish darajasini yuksaltirish imkonini beradi. Bu esa innovatsion yondashuvlarni, ya'ni funksional oziq-ovqat mahsulotlarini qo'llash, vegetarian va vegan variantlarni joriy etish, allergenlarga nisbatan moslashuvchan yechimlar, shuningdek, lokal va mavsumiy mahsulotlar asosida sog'lom ovqat tayyorlash amaliyotini talab etadi.

“Milliy iqtisodiyotimizda investitsiyalar va moliyaviy rivojlanishni oliy muhandislik maktablari bilan integratsiyalashtirish samaradorligi”

Mehmonxona ovqatlantirish xizmatlarida innovatsion menyu siyosatini shakllantirish masalasi bugungi kunda nafaqat gastronomik, balki sog'lom turmush tarzi, ekologik barqarorlik va mijozga yo'naltirilgan xizmat tamoyillari bilan chambarchas bog'liqdir. So'nggi yillarda turizm sohasining jadal rivojlanishi, mehmonxona xizmatlariga bo'lgan talabning ortishi va mijozlar ehtiyojlarining tobora murakkablashib borishi natijasida ovqatlantirish xizmatlari yanada ko'proq e'tiborni talab qiladigan strategik yo'nalishga aylanmoqda. Xususan, sog'lom ovqatlanishga bo'lgan ijtimoiy talabning ortishi, turli parhezlar, allergenlarga sezuvchanlik, vegetarian va vegan ovqatlarga bo'lgan ehtiyojning kengayib borishi mehmonxona menyularining innovatsion tarzda qayta ko'rib chiqilishini taqozo etmoqda (1-rasm).



1-rasm. Global ish joyida ovqatlanish afzalliklari (Eurest, 2023)¹.

Yuqoridagi grafikda Eurest kompaniyasining 2023-yilda 26 ta mamlakatda o'tkazgan global ovqatlanish so'rovi natijalari tasvirlangan bo'lib, ishtirokchilarning ish joyidagi ovqatlanish xizmatlaridan kutgan eng muhim afzalliklari foizlar ko'rinishida ifodalangan. Grafikdagi eng yuqori natija – 78% ishtirokchi sog'lom ovqatlanish imkoniyati mavjud bo'lishini asosiy mezon sifatida ko'rsatgan. Bu, zamonaviy ishchilar va mijozlar uchun salomatlik omillari birinchi o'rinda turishini, shuningdek, ovqat tanlashda kaloriyaviy qiymat, ozuqaviy balans va zararli ingredientlarning yo'qligi kabi omillar e'tiborga olinayotganini bildiradi.

Ikkinchi o'rinda – kaloriya va tarkib haqida ma'lumot berilishi (67%), ya'ni mijozlar ovqat tanlashda ongli qaror qabul qilishni xohlaydi. Bu esa menyuda oziq-ovqat tarkibini aniq ko'rsatish amaliyotining keng joriy etilishini talab qiladi. Mahalliy mahsulotlar mavjudligi (65%) ham muhim mezon sifatida ajralib turadi. Bu natija ekologik va iqtisodiy barqarorlikka bo'lgan ijtimoiy talab ortib borayotganini anglatadi, chunki lokal mahsulotlar nafaqat ekologik jihatdan qulay, balki iqtisodiy jihatdan ham mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlaydi.

Raqamli buyurtma imkoniyati (55%) esa mijozlar qulaylik, tezlik va texnologik yondashuvlarga katta e'tibor berayotganini ko'rsatadi. Bu, ayniqsa, pandemiyadan so'ng raqamli xizmatlarning afzalliklari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ekologik barqarorlik (60%) va vegetarian/vegan variantlar (44%) bo'yicha ham sezilarli talab mavjud. Bu esa mehmonxona ovqatlantirish xizmatlarini faqat gastronomik jihatdan emas, balki ijtimoiy va ekologik javobgarlik tamoyillari asosida qayta tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, grafik sog'lom, shaffof, ekologik va texnologik asoslangan ovqatlanish xizmatlari global darajada asosiy talabga aylanayotganini yaqqol ko'rsatmoqda. Bu esa mehmonxona restoranlariga menyu siyosatini qayta ko'rib chiqish va zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirish zaruratini anglatadi.

Afsuski, O'zbekiston mehmonxonalarining aksariyatida menyu siyosati hanuzgacha klassik va konservativ yondashuvlarga asoslangan bo'lib, sog'lom ovqatlanish tamoyillariga mos variantlar yetarli darajada mavjud emas. Ko'plab mehmonxona restoranlari an'anaviy oshxonaga tayanadi, bu esa zamonaviy iste'molchining ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi. Shu bilan birga, menyularda oziq-ovqat mahsulotlarining kaloriya miqdori, tarkibidagi allergenlar, parhezga mosligi haqida to'liq ma'lumotlar keltirilmagan, bu esa sog'lig'i bilan bog'liq

1 <https://eurest.co.uk/news-blog/key-takeaways-from-our-global-eating-at-work-survey>

ehtiyojlarga ega mijozlar uchun noqulaylik tug‘diradi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mehmonxonalar oziq-ovqat xizmatlarida sog‘lomlik va innovatsionlik mezonlariga e‘tibor qaratmasa, raqobat muhitida o‘z pozitsiyalarini boy berish xavfi mavjud.

Xalqaro tajribaga murojaat qilsak, rivojlangan mamlakatlarda mehmonxona restoranlari menyularini tuzishda sog‘lom ovqatlanish bo‘yicha dietologlar, oziq-ovqat texnologlari va marketing mutaxassislari bilan hamkorlik qilinadi. Masalan, Skandinaviya mamlakatlari, Germaniya, Yaponiya va AQSH mehmonxonalarida menyu siyosati sog‘lom turmush tarziga qaratilgan, bunda lokal, mavsumiy, ekologik toza mahsulotlardan foydalanishga alohida e‘tibor beriladi. Shuningdek, ushbu davlatlarda mijozlarga kaloriyalar soni, oqsil-yog‘-uglevod balansini ko‘rsatib beruvchi interaktiv menyu tizimlari joriy etilgan bo‘lib, mijozlarning ongli tanlov qilishi va salomatligini nazorat qilishiga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda esa hozircha bu kabi yondashuvlar keng ommalashmagan. Mehmonxona biznesining aksariyat vakillari menyularni faqat narx va ta‘m mezonlari asosida shakllantiradi, bu esa sog‘lom ovqatlanish siyosatining to‘liq joriy etilishiga to‘sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, ko‘plab oshpazlar sog‘lom ovqat pishirish texnologiyalaridan yetarlicha xabardor emas, bu esa xizmat sifatiga bevosita ta‘sir qiladi. Shuningdek, sog‘lom oziqlanish bo‘yicha marketing kampaniyalari deyarli yo‘q, aksariyat mehmonxonalar o‘z xizmatlarini innovatsion va individual yondashuvlar asosida reklama qilishga tayyor emas.

Shu bois, mavjud muammolarni hal etish uchun bir necha yo‘nalishda kompleks choralar ko‘rish zarur. Birinchidan, mehmonxona restoranlarining menyu siyosatini qayta ko‘rib chiqish, unda sog‘lom ovqatlanish tamoyillariga mos taomlar ulushini oshirish zarur. Bu jarayonda xalqaro tajriba, xususan, “smart nutrition” yondashuvi asosida mahalliy mahsulotlardan foydalangan holda qulay va foydali taomlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, oshpazlar va ovqatlanish xodimlari uchun sog‘lom ovqat pishirish texnologiyalari bo‘yicha muntazam o‘quv kurslarini yo‘lga qo‘yish kerak. Bu nafaqat xizmat sifatini oshiradi, balki yangi ovqatlanish madaniyatining shakllanishiga ham xizmat qiladi. Uchinchidan, mehmonxona saytlarida va menyularda ovqatlarning kaloriyaviy qiymati, tarkibi va sog‘lomlik darajasi haqida batafsil ma‘lumot beruvchi vizual vositalarni joriy qilish foydali bo‘ladi.

Bundan tashqari, mehmonxonalar sog‘lom ovqatlanishni brend strategiyasining bir qismi sifatida qarashi kerak. Bu orqali mijozlarda ishonch va sadoqat hissi shakllanadi. Sog‘lom ovqatlanish siyosati yordamida nafaqat xizmat sifati oshadi, balki mehmonxonaning ijtimoiy mas‘uliyati, ekologik yondashuvi va innovatsionligi ham namoyon bo‘ladi. Mijozlar orasida ekologik toza, parhezboq, organizmga foydali ovqatlarga talab ortib borayotgani mehmonxonalarni bu borada faol harakat qilishga undaydi. Bu esa o‘z navbatida mehmonxona sanoatining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mehmonxona ovqatlantirish xizmatlarida innovatsion menyu siyosatini shakllantirish zamonaviy mehmonxona boshqaruvi uchun muhim strategik yo‘nalish bo‘lib, sog‘lom ovqatlanish tamoyillarini joriy etish orqali xizmat sifatini oshirish, mijoz ehtiyojlariga moslashish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkonini beradi. Ayni paytda O‘zbekistondagi ko‘plab mehmonxonalarda bu yo‘nalish bo‘yicha tizimli ishlar yetarlicha yo‘lga qo‘yilmagan. Taomlar menyusi asosan an‘anaviy va tor ko‘lamda tuzilmoqda, sog‘lom ovqatlanish bo‘yicha ma‘lumotlarning taqdimoti esa sust. Bu holat sog‘lom turmush tarzini tanlagan mehmonlar ehtiyojlarini to‘liq qondirishga imkon bermaydi, shu sababli xizmatlar mazmungan boyitilishi va zamonaviylashtirilishi zarur.

Sohani rivojlantirish uchun, birinchi navbatda, sog‘lom ovqatlanishni menyu siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirish lozim. Buning uchun dietologlar va oziq-ovqat texnologlari bilan hamkorlikda sog‘lom, balanslashtirilgan taomlar ishlab chiqish, oshpazlar malakasini oshirishga doir maxsus o‘quv dasturlarini joriy etish, har bir ovqat tarkibiga oid kaloriyaviy va dietik axborotni menyularda ochiq ko‘rsatish kerak. Shuningdek, mahalliy va mavsumiy mahsulotlarga asoslangan menyularni yaratish, ekologik barqarorlikni e‘tiborga olish va sog‘lom ovqatlanishni marketing strategiyasining bir qismiga aylantirish orqali mehmonxonalarda sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlovchi innovatsion xizmat modelini shakllantirish mumkin. Bu yondashuv nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki jamiyat salomatligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. X. Zokirov. Gastroinnovatsiyalar va ularning xizmat ko‘rsatish tizimiga ta‘siri. – T.: Ilm ziyo, 2022. – 203 b.
2. Nazarov. Raqobat muhitida mehmonxona restoranlari boshqaruvi. – T.: Iqtisod-moliya, 2018. – 265 b.
3. G. Mamedova. Менеджмент гостиничного и ресторанного бизнеса. – М.: Юрайт, 2020. – 320 с.
4. J. Cousins, D. Foskett. Food and Beverage Management. – London: Hodder Education, 2016. – 352 p.
5. M. Pizam. International Encyclopedia of Hospitality Management. – Oxford: Elsevier, 2012. – 708 p.
6. D. Sloan. Culinary Taste: Consumer Behaviour in the International Restaurant Sector. – London: Routledge, 2013. – 292 p.
7. VAZIRI, F., NANNI, M., MATWIN, S. et al. (2019). Discovering Tourist Attractions of Cities Using Flickr and OpenStreetMap Data. In Rocha, Á., Abreu, A., Carvalho, J. V. et al., eds., Advances in Tourism, Technology and Smart Systems, pp. 231– 241. Berlin: Springer. <https://doi.org/10.1007/978-981-15-2024-2>.

8. Bernadette Kenney. Hospitality Employee Training Programs: Best Practices and Effectiveness. – Journal of Hospitality & Tourism Education, Vol. 32, No. 1, 2020.
9. HOSCO Training Framework. Final Report. – European Commission, Directorate-General for Employment, Social Affairs and Inclusion, 2022.
10. <https://eurest.co.uk/news-blog/key-takeaways-from-our-global-eating-at-work-survey>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

